

Зиёвиддин МАНСУР

АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ

Наманган - 2020 йил

УЎК: 821.512.133-1

КБК : 84 (5Ўзб) 7

М - 28

Истеъдодли шоир, етук публицист, фаол жамоатчи Зиёвиддин Мансур ўзининг “Қалбим парчалари”, “Ҳайрат салтанати”, Дилраболар диёри”, “Муҳаббат боғи”, “Эзгулик элчиси”, “Ноёб кашфиёт”, “Тўтиё”, “Истиқбол йўли”, “Шом ва тонг”, “Ўзбекистоннинг самовий эътирофлари”, “Қуёш ҳайқириқлари, “Аёлнинг қирқ жони тавсифи” сингари қатор шеърий китоблари билан ўз мухлисларига эга ижокорлардан.

Унинг қатор шеърлари таниқли ҳофизлар томонидан севиб куйланади. Кўплаб шеърлари қорақалпоқ, рус, инглиз, немис, урду ва пуштун тилларига таржима қилинган.

Ўйлаймизки, юксак бадий руҳ ва чуқур лиризм билан суғорилган шеърлардан сараланган ушбу китоб ҳам сизни бефарқ қолдирмайди, азиз шеърят ихлосмандлари!

ISBN – 978-9943-5920-5-6

© “Наманган” нашриёти 2020 йил

© Зиёвиддин МАНСУРОВ 2020 йил

АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ
ДОСТОН – ФАХРИЯ
ДЕБОЧА

Ташвишлар етарли,
Лекин бахайр –
Оила, фарзандлар, иш,
Зарур бари.
Биродар!
Уларга дейлик-да:
Хайр!
Кетдик
“Афсоналар водийси” сари.

-Бундай жой қаерда?-демай туриб сен
Мен давом этайин жавоб беришда:
-Бу жой шундоққина Тошкент томондан
Наманган шахрига кираверишда.

Олдиндан бир гапни айтиб қўяйин:
Афсона туюлар ушбу сўзим ҳам:
Селхона бўлганди ушбу жой олдин,-
Десалар ишонмам бугун ўзим ҳам.

Дастлаб “Афсоналар водийси” ҳақда
Юртбоши гап очса:
-Наҳотки!-девдик.
Бундай афсонани, рост гап, у вақтда
Ҳатто тушимизда кўрмаган эдик...

Ахир,
Ким ўйлабди шу селхонада
Қурилар бунақа маскан – шоҳона?!
Халқнинг юртга меҳри ошмиш янада
Ҳақиқат тусини олгач афсона!

Иккимиз олгунча озгина жилиб,(?)
Сен тутиб олгунча бир қадар ўзни
Дебоча сўзимга омухта қилиб,
Наманган мадҳидан бошлайин сўзни:

НАМАНГАН МАДҲИ

Яратганнинг куч-мадорига
Тан бермаган гумроҳлар учун-
У дунёда жаннат бориға
Ишонмаган шаккоқлар учун

Ҳайрат ичра қолиб ҳайрон-лол,
Кўзин очсин, деб аҳли гумроҳ,
Бўлсин, дея жаннатга тимсол
Наманганни яратмиш Аллоҳ.

Хизирназар Наманган чиндан
Бу, эҳтимол, илоҳий тақдир:
Водийга ҳам ўтилар шундан,
Поп водийнинг дарвозасидир.

Чустин аҳли мисли Мавлоно
Чустийларнинг қавмидан эрур.
Шу боисдан ҳар бири гўё
Қуёш мисли сочар шуъла, нур.

Тўрақўрғон аҳли тўралар
Қаби оҳанрабоси бор халқ.
Ҳалол меҳнат билан кўр олар,
Бобурдайин подшоси бор халқ.

Ҳар гўшаси ўзга бир олам,
Кўрсанг дилда қолмайди қайғу,
Косонсойин бир кўрган одам,
Ялтани ҳеч қилмайди орзу.

Тошбулоқнинг асл, мазмунан
Тошданлиги номидан маълум.
Чиндан аҳли Наманган туман
Боши тошдан, онги зич илм.

Мингбулоқнинг мингта булоғин
Санаб етган эмас ҳеч киши.
Ишда пишган уруғ-аймоғин
Булоқлардан тиниқдир иши.

Нориндарё атрофларида
Асл ўзбек-сартлар яшайди.
Йигит-қизин барчаларида
Эркакча феъл – мардлар яшайди.

Мард Учқўрғон аҳли бўлишни
Ҳар қандайин одам ҳам суяр.
Чунки бу ерликлар ҳар ишни
Учқўрғондан кўрсатиб қўяр.

Уйчи сўзи билмадим, асли
Уйчи эмас, менимча Ўйчи.
Ўй сурмас бу эл деса насли
Дангал айтар:
Бу гапинг қўйчи!

Наманганда, эмаски ажаб,
Тоғ йўқлиги бироз чатоқ-да.
Бу гап унча тўғримас, сабаб:
Тўртта тоғ бор битта Чортоқда.

Янгиқўрғон – боғлар диёри,
Бетимсол боғ-роғлар макони.
Тоза ҳаво, соф нафас бори
Худди филиали Маъвони.

Дунё кезинг такрор ва такрор,
Бу бир шоир шарҳи, ёронлар:
Оламда битта гул шаҳри бор,
Бу – Наманган шаҳри, ёронлар!

Бунда ҳар бир эркак мисли тоғ,
Гарчи мўмин-қобилдир кўпи,
Белида бор ҳамиша белбоғ,
Бошида бор ҳамиша дўппи.

Худо берган ҳар кун беш маҳал
Масжидларда янграйди азон,
Бу жой аҳли азалдан азал
Аҳли тақво – аҳли мусулмон.

Хизирсифат мўйсафидлари,
Лафзи билан улашади қанд,
Гўзалликда аёлин бари
Жаннатдаги ҳурларга монанд.

Бу гўшанинг чинорлари ҳам
Боғбонига ўхшаб кетади:
Мисоли сертакаллуф одам,
Қучоқ очиб меҳмон кутади.

Гар олмоқчи бўлсангиз билиб
Афсонанинг рostaкамини
Таклиф этай,
Кўринг бир келиб,
Наманганнинг гул байрамини.

Бунда гуллар оғзин ланг очиб,
Қишин-ёзин яшнаб туради.
Фавворалар меҳрини сочиб
Йўлларга сув пуркаб туради.

Иқрор бўлмас эса дилдан ким
Ижодкорин ёнишларига,
Бир дақиқа тутсин қулоғин
Ҳабибасин хонишларига.

Мевасига келган ҳар одам
Шевасига бўлгай харидор.
Бешикдаги чақалоғин ҳам
“Инга”лаши куйвор, назмвор.

Бунда мурид, келса хонаси,
Пирга ақл ўргатиб қўяр,
“Ўртар”ласа, Машраб ноласи
Ошиқларни ўртатиб қўяр.

Кўкларга учгандай сарафроз
Бўлармиди дилдан яйрамай?
Камолиддин чалганида соз
Ҳатто булбул турса сайрамай?!

Бу эл пири эрур санъатни,
Бунга дилдан тан берган озмас.
Акмал Нур кашф этган суратни
Тирик жон, деб ўй сурган озмас.

Боксёр Муроджоннинг муштига
Фил қулайди, десак бор асос.
Алишерин етти пуштига
Пули етар, деган гап ҳам рост.

Бу эл ҳатто Марсда бўлмас кам –
Ўз ошини ошаб кетади.
Наманганлик Ойга чиқса ҳам
Меҳнат қилиб яшаб кетади.

Ўзни кўпроқ масжид, мадраса
Томон урар наманганликлар.
Жаннатга ҳам Худо хоҳласа
Энг кўп кирар наманганликлар!

Бурунги қутлуғ йил, дафъатан
Биз чун кўп бахт айлади инъом.
Юртбоши ҳам бежиз “Наманган
Йили” дея бермадилар ном.

Етти ётлар нима деса дер,
Шундай жойда яшаш чин бахт-да!
Дўстим!
Тингла яна битта шеър
Айтиб берай Наманган ҳақда:

НАМАНГАН БАДИҲАСИ

Олмалари ой-ой, Ой
 Наманганимнинг,
Ҳолвалари болга бой
 Наманганимнинг.
Сўзлари ҳам олма-ю
 Ҳолвасидай бол –
Шеваси нақ асалчой
 Наманганимнинг.
Сувлари мисли зам-зам
 Бўлгани чун ҳам
Нонлари гижда, ширмой
 Наманганимнинг.
Олам эли билар гул
 Шаҳри, дейилса,
Ҳар гули рамзи чирой
 Наманганимнинг.
Қизлари – Лайли, васли

Куйида Мажнун –
Толларининг қадди ёй
Наманганимнинг.
Норини раққоса-ю
Сайҳуни – машшоқ,
Ҳофизи – хонанда сой
Наманганимнинг.
“Алла”сини Ҳабиба
Бошласа, нетонг
Булбули солса “дод-вой”
Наманганимнинг.
Асли бу жой Хизирнинг
Боғи, шу боис
Ҳар қаричи қадамжой
Наманганимнинг..
Тарихан Ахсикент илк
Тахти, сеҳрли
Тилсими бу шоҳсарой
Наманганимнинг...
Мулла Бозору Машраб,
Ибрату Нодим
Бойлиги мисли буғдой
Наманганимнинг.
Чустийи Чуст – булбули,
Ҳабиби ҳам зўр,
Шоири сўзлари мой
Наманганимнинг.
Ҳар бир улуғи тоғ, Ер
Қаърида ётган –
Пойида не-не Олой
Наманганимнинг.
Шаънини булғаган ё
Бурчин унутган.

Шоҳ эса, бўлғай гадой
Наманганимнинг...
Толеи қаҳқашонда
Янги замонда
Бошига кўнди Ҳумой
Наманганимнинг:
Янги шу ҳур замонда
Гуллади яшнаб,
Халқи бўлиб кетди бой
Наманганимнинг!
Қодир Эгам! Ёрлақаб,
Омадин отин
Чопқир этиб, учар той
Наманганимнинг!
Ишқини айлаб наво,
Айла, Зиё, васф,
Довруғин оламга ёй
Наманганимнинг!

Тамойил бор аксар назмимда
Тўқ қофия тонг сўзига онг.
Бу оламда,
Менинг наздимда
Намангандан бошланади тонг.

НАМАНГАН ТОНГИ

Борлиқ тун пардасин
Кўтармай ҳали,
Юздан оқ рўмолин
Очгандай хиёл
Қучоғи тўла гул
Субҳ маҳали

Гул шаҳрим
Онамдай
Кўрсатар жамол.
Янграр чор тарафдан
Сўфилар “бонг”и,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Машҳур Халқ ҳофизи –
Камолиддини
“Эҳеҳей Наргиз!” деб
Чорлайди гўё.
Шунданми,
Келинлар қувиб уйқуни,
Тонг отмай атрофга
Берар кўрк, оро.
Бу удум
Минг-минг йил
Вақтдан буёнги
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ҳаттоки хўрозлар
Қичқирмай туриб,
Тўйларга чорлайди
Жарчи карнайлар.
Бир жуфт-
Бир жуфт бўлиб
Паловни уриб,
Эл ўзин далаю
Боғларга шайлар.
Завқ берар ноғора,
Сурнай “ғижбанг”и

Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ҳайкириб оқади
Пойида Сайхун,
Бошида улкан тоғ,
Гўё тожи бор.
Гуллари
Сеҳрлаб қўйгани учун
Бағридан тўрт фасл
Кетолмас баҳор.
Қумрилар куй тўқир
Янги ва янги
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Яна бир хуш одат:
Ҳар жума куни
Бомдоддан сўнг
Диллар
Мозорга тортар.
Дуогўй эл
Яхши биларки шуни:
Арвоҳлар шод юртда
Мартаба ортар.
Ҳаттоки мархумлар
Шод маскан тонги,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Истиқлол Қуёши
Порлаб ҳур ўлка
Мисли бу гўша ҳам

Нурларга тўлди.
Олис уч минг йиллик
Тарих бир бўлса,
Янги бу ҳур замон
Даври бир бўлди.
Лол ўлманг, айласа
Хумори, банги,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Гул бўйли ҳаводан
Қониб сипқориб,
Туяркан кўкатлар
Хуш нафасини,
Сухбатдош жўралар
Гузарга бориб,
Тарқамас
Ичмай ризқ-маставасини.
Кўк чойдан эригай
Кўнгиллар занги,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Унутиб
Юз йиллик дарду чарчоғин,
Мисоли
Жаннатга тушгандай бўлар.
Саҳарлаб ким кезса
Наманган боғин,
Енгиллаб
Самога учгандай бўлар.
Бу – Эгам Аршидан
Жўнатган тонги,

Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ўйлайман:
Қай гўлни уйқу элитар
Ҳабиба инграниб
“Алла” айтган пайт?!
Ухласа ҳам
Завқдан уйғониб кетар,
Зулайҳо
“Ҳай-ҳай”лаб
Ялла айтган пайт!
Кенг жаҳон бўйлаб
Кенг таралган донғи,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Булбуллар
Қайда кўп жўшиб
“Чаҳ-чаҳ”лар?
“Чаҳ-чаҳ”лар
Қай маскан
Бўлса гул,
Гулзор!
Хўш,
Энди айтинг,
Эй, “валах-валах”лар,
Дунёда гул шахри
Яна қайда бор?!
Ҳамоҳанг Алишер
Файзнинг оҳанги, –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Алишер Усмонов
Кетмай яшарди,
Сайр этса ўз шахрин
Тўрт томонини.
Янада яшнатса
Мулки ошарди
Ўз ота-онасин
Гул ошёнини!
Бебаҳо-беҳисоб
Мулк-махзан тонги –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Бобур ҳам
Келса шод
Сайр этар эди,
Битарди
Энг гўзал-
Шоҳ ғазалини.
Эҳтимол,
Шу жойда яратар эди
Тамоман бошқача
“Тожмахал”ини.
Ҳинд, Руммас
Ўзбекнинг пок,
Теран тонги
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Сир эмас,
Қайсидир
Машҳур кентларда

Фаҳмил, деб
Тонгда ҳам
Кам-кам ичарлар.
Ичкилик тамоман
Ёт бу шаҳарда
Ичсалар ҳам, гоҳ-гоҳ
Зам-зам ичарлар.
Жанг бўлса ҳам бўлар
Гоҳ шахмат жанги,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Муҳтарам Юртбошим
Чоғлаб ҳар дилни,
Ўшанда бу жойдан
Беиз қайтмади:
Муайян куннимас,
Бутун бир йилни
Наманган йили! деб
Бежиз айтмади.
Эмас бир жой тонги,
Йўқ!
Ватан тонги! –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ўз юксак баҳосин
Олиши тайин
Минг йиллар
Мўлжалга олинган ишлар.
Аввали Худо,
Сўнг Юртбоши,
Кейин

Ёш ҳоким
Бош бўлиб
Қилинган ишлар.
Бу улкан денгизга
Бир ўзан тонги
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ҳамжихат бу элда
Гап бор азалдан:
Лайлакнинг келишмас,
Кетишига боқ.
Келишган Наманган
Аҳлин дафъатан
Сафларда басма-бас
Кетишига боқ!
Ҳали бу элнинг илк-
Бошланғич онги,
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Покният қавмимнинг
Рамзидир азал
Оқ рўмол,
Оқ яктак,
Оқ лайлак,
Қатик.
Шундайин ҳисларга
Бўлар-да маҳтал,
Ҳатто пандемия
Илашмас қаттиқ.
Азал оқ фотиҳа-
Хуш сухан тонги,

Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Одатий ишга ҳар
Қизни, ўғилни
Кузатар
Дуога очилган қўллар.
Шундан
Хуш кайфият
Яшнатиб дилни,
Каъбага туташар
Бунда бор йўллар.
Умрга татир руҳ
Саҳар мардонги –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ҳотамтой тирилиб
Шу томон юрса,
“Наманган сити”да
Ётиб оларди.
Тонгда
“Афсоналар водийси”н кўрса,
Шу жойдан бир дача
Сотиб оларди.
Дўстлар!
Ҳеч жойда йўқ
Бу чаман тонги –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Қулоғим остида
Шивирлар бир ун:

Келгандай бўлар шох
Машраб овози...
Эртанги аланга,
Бугунги учқун –
Меҳрнинг нози бу,
Бу – Меҳринози!
Шунчаки тонг эмас,
Фахр, шаън тонги –
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!

Ушалгай тонгдаги
Ҳар орзу-ҳавас:
Юксалиб бораркан
Илму фан, ҳунар
Вақт келиб,
Наманган дунёни эмас,
Дунё
Наманганни
Келиб ўрганар!
Оламни қамрар
Шу
Фикрим жаранги:
Наманган тонги бу,
Наманган тонги!!!

“АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ” ДЕМАК – МЎЪЖИЗАЛАР
МАМЛАКАТИ ҲАМ

Мавзу бўлиб санъат,
Шеърият
Юраклардан ариб ташвиш,
Ғам
Мана,
Етиб келдик ниҳоят
“Афсоналар водийси”га ҳам.

Дўстим!
Кўриб турибсан, мана,
Бизга Худо бериб қолди-да!
Қара!
Ҳатто Швейцария
Ҳеч нарсамас бунинг олдида!

Баландпарвоз гап эмас бу гап:
Ёки эмас бу “ура-ура”
Бу жой фақат шу жойга хос
Зап,
Мутлақ янги архитектура.

Ер юзида қозонганди от
Етти доврўғу шаън мўъжиза.
Бу ердаги ўттиз иншоот,
Ҳар бири биттадан мўъжиза!

Манов чўкқи қилгудай ҳавас
Рамзи Эйфель,-десак этади!
Йўқ!
Аксинча –

Бу Эйфельгамас,
Эйфель бунга ўхшаб кетади!

Тепасидан, (билмасин ёғий)
Боқмоқ гашти-тамоман ўзга:
Унга чиқсанг, бутунлай водий
Ташланади бир йўла кўзга.

Тўрт юз ўрин меҳмонхонада
Италия андозаси бу!
Ундаги ҳар битта хонада
Бордир олам-олам зар, инжу!

Лофмас зийнатлар зийнати шу,
Рамзи олийларнинг олийси!
Хуллас,
Номи ўзи билан бу –
Асл Афсоналар водийси!

Бир юз эллик вилла,
Олти юз коттеж –
Шоҳ қасри ҳеч эрур
Улар ёнида.
Ёзда шабадагоҳ,
Қишда қайноқ печ
Муҳайё
Унинг ҳар хонадонида.

Ундаги кўлларнинг
Ҳар биттасида
Яйраса бўлади сузиб оломон.
Айтинг, қай вақт бўлган

Бундай нашида?
Айтинг, қай вақт бўлган
Бу каби даврон?!
Бахтсизлар ҳам бахтли
Бўла олади,
Тузалгай
Тузалмас дил яралари.
Чунки ҳар дард-ғамни
Қувиб солади
Ишласа мусиқий фавворалари.

Муҳими,
Ўн мингта
Мўмин учун мос
Масжид бор
Дунёнинг ҳеч ерида йўқ.
Виждон эркинлиги учун бу асос
Мўминлар ибодат қилар кўнгли тўқ.

Гўзаллик куйланар
Такрор ва такрор,
Гарчи кўп мўъжиза кони бу дунё,
Дунёда боғлар кўп,
Афсона бисёр,
Лекин “Афсоналар водийси” танҳо!

Тарихан бу шаҳар не-не каттаю-
Кичикни ҳайратга солмаган эди?!
Хизирнинг боғлари бўлса ҳамки у
Бу қадар кўркам тус олмаган эди!!!

ДУНЁ КЕЗГАН БИР САЙЁҲ ЗИКРИ

Кезиб турли-туман сарҳадда,
Кўп жойларга бўйлаган эдим.
Лекин, рост гап, бирон давлатда
Бунақасин кўрмаган эдим.

Умр бўйи сайр этиб олам,
Кўрмаганим қолди жуда кам.
Кўрдим Швейцариясин ҳам
Бунақасин кўрмаган эдим.

Жойлар турфа, жиҳозлар ҳар хил,
Бирисидан бириси сархил,
Бамисоли битта ансамбль
Бунақасин кўрмаган эдим.

Бокдим Эйфель минорасига,
Чикдим Париж канорасига,
Ҳайрат бўлган қаторасига
Бунақасин кўрмаган эдим.

Энг муҳими табиат мавжуд,
Табиатда жамият мавжуд.
Беқиёс ажиб санъат мавжуд,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Оддий сойда, чуқур ичида,
Қолмиш мажмуа нур ичида.
Яйрар одам сурур ичида
Бунақасин кўрмаган эдим.

Жўшдим боқиб баланд осмондан,
Жўшдим боқиб ҳув паст томондан,
Қараб кўрдим тўрттала ёндан,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Туғилгандай бўлиб онадан,
Чиққим келмас меҳмонхонадан,
Ўлсам, бу руҳ чиқмас танадан,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Масжиди ҳам кичик-кириммас,
Минглаб масжид бундай пўриммас,
Худо уйин ким қилмас ҳавас,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Гапларимга қайсидир биров,
Эътироз ҳам билдирар дарров,
Ким ютарга ўйнайман гаров,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Мўминлари ҳам сара-сарвар,
Худди Каъба аҳлига ўхшар,
Аллоҳ буюрган янглиғ яшар,
Бунақасин кўрмаган эдим.

Дилда борин этсам ифода,
Ким тан берар, кимдир бермас тан.
Лоф эмас ҳеч , ахир дунёда
Бунақаси ҳали бўлмаган!

Эй, олам аҳли,
Эй,
Сиз насли башар!
Яйрасин десангиз руҳ,
Тан ҳамда жон,
Йўлланма олинг-да,
Айлангиз сафар,
Ҳақиқий мъжиза – Наманган томон.

Ўшанда таклифдан миннатдор бўлиб,
Албатта, менга ҳам раҳмат айтасиз.
Ишончим комилки,
Завқ-шавққа тўлиб,
Жаннатни кўргандай бўлиб қайтасиз.

Мен шунда гўёки қучгандай марра,
Завқимни шеърларга тўкиб соламан.
Ва Сизни,
Эй, дўстим!
Яна бир карра
Наманган шаҳрида кутиб қоламан!

Шоирман-да,
Доим гапим ўнг,
Гапни чўзсам, малол олмайсан.
Ушбу шеърни эшитгандан сўнг
Наманганга келмай қолмайсан:

НАМАНГАН ҚАСИДАСИ

Очар Ҳар ғунча ёзу қиш
Қабо бизнинг Наманганда,
Шу боис энг муаттарбўй
Ҳаво бизнинг Наманганда.

Муҳаббат кўзғаб онгларда
Ажаб сирли оҳангларда,
Чунон дил яйратар боди
Сабо бизнинг Наманганда.

Чаманда қумри, булбуллар
Жўшар нағма қилиб, ваҳ-вах,
Сабо бирла келар дилбар
Наво бизнинг Наманганда.

Бошида пурвиқор тоғлар
 Пойида яшнаган боғлар,
Нахуш дилларни ардоқлар
 Сафо бизнинг Наманганда.
Ғазал бобида шоҳ Машраб,
 Ҳабиб Саъдуллалар насли
Абад назми била бергай
 Садо бизнинг Наманганда.

Нечун аҳли аёли хур,
 Малаклардан қолишсинлар,
Этиб турса париларни
 Бино бизнинг Наманганда.

Гўзал офтобжамолларга
 Эса оппоқ рўмол зийнат,
Безакдир иффату шарму
 Ҳаё бизнинг Наманганда.

Қиз олсангиз олинг шундан
 Адашманг, совчилар, ҳай- ҳай,
Асл тоза палак – аҳли.
 Вафо бизнинг Наманганда.

Ҳамиша қўллари кўксин
 Қучиб тургай тавозеъла,
Қари-ёшда ажаб таъзим
 Бажо бизнинг Наманганда.

Келинг, дўстлар, келинг, дўстлар!
 Тутармиз Сизни бош узра,
Азиз меҳмон учун жонлар
 Фидо бизнинг Наманганда.

Қаю кимса касал, келсин
 Нанай, Чортоқ, Косонсойга,

Тузалмас хасталикларга
Даво бизнинг Наманганда.

Қариб юз ёшда ҳам аҳлин
Дуто бўлмас бели шундан,
Касоддир бўлса бозори
Асо бизнинг Наманганда.

Эли тоат-ибодатда
Қолишмас Каъба аҳлидан,
Ватан, эл ҳаққига энг кўп
Дуо бизнинг Наманганда.

Минода битта ҳамюрт бой
Сўзидан бир тилак уқдим:
У минг бор рози бўлмоққа
Гадо бизнинг Наманганда.

Ким у динсиз-диёнатсиз,
Ҳунарсиз, илму одобсиз,
Анингдек кимсалар бахти
Қаро бизнинг Наманганда.

Гўзаллик, кўрк, нафосатга
Чунон шайдо яшар бу эл,
Шу боис гул эрур Еру
Само бизнинг Наманганда.

Ўзин абгор этиб ётмай,
Гўзалларнинг қўлин ўпгай,
Чунонам бахтлидир Ҳатто
Хино бизнинг Наманганда

Агар бахт истасанг эй, ёр!
Этай бахтим ато, келгин,
Кел, эй бошингга қўнгувчи
Ҳумо бизнинг Наманганда.

Яратган Тангрим ошёни, Зиё,
 Ҳар дилда, дебдирлар
Демак, ҳар дилга жо бўлган
 Худо бизнинг Наманганда!

Иложи йўқ суймай бу Ерни,
Кетолмайсиз бўлмай шайдо-ром.
Ғафур Ғулом бошлаган шеърни
Ихлос билан эттирсам давом:

Бу кўм-кўк Кўкда тинчлик
Каптари бизнинг Намангандан,
Гўзаллик ҳам вафонинг
Дафтари бизнинг Намангандан.
Қаерда икки кўкламнинг
 Сабоси бир томон елса,
Билингким, ул эсибдир,
 Бир сари бизнинг Намангандан!
Наманганликка бу жоймас,
 Гўзалдир икки дунё ҳам,
Билинг, жаннатдаги аксар
 Пари бизнинг Намангандан!
Навоийдан кейин Бобуру Машраб
 Чустилар борки,
Бу уч кўҳна арузнинг
 Заргари бизнинг Намангандан.
Булардан-да баланд мулло
 Бозор Охунд, Косонийлар
Ки аксар маънавият ганж,
 Зари бизнинг Намангандан.
Бу жойда на кумуш кони,
 На тилло кони бор, аммо
Жой олгандир гўзаллик

Меҳвари бизнинг Намангандан.
Зиё, сендай азону шом
Худо, дерким элинг тинмай,
Не бахтки, ҳар бало ўтгай
Нари бизнинг Намангандан!

Х О Т И М А

Ҳар қадамда мўъжиза лак-лак,
Кўрган ҳайрон:
Бу қандай олам?
“Афсоналар водийси” демак –
Мўъжизалар мамлакати ҳам.

Олдимизда ҳали кўп сафар,
Шод юрса халқ салтанатида.
Кўришгунча хайр,
Биродар!
Мўъжизалар мамлакатида.

Яратганга шукрона айта,
Завқим жўшиб шеърга соламан.
Дўстим!
Келсанг,
Қайта ва қайта
Наманганда кутиб оламан!

ЧОРЛОВ ҚЎШИҒИ

Наманганга тушса йўлингиз
“Афсоналар водийси” н кўринг.
Нимадандир чўкса кўнглингиз,
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Димоғингиз чоғ бўлар шунда,
Кўнглингиз нақд тоғ бўлар шунда,

Умрингиз завқла тўлар шунда
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Ғамлар сизни ташлаб кетади,
Қувонч қўлдан ушлаб кетади,
Самоларга бошлаб кетади
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Тўрт юлдузли меҳмонхоналар,
Виллалар, гўзал жононалар,
Фавворалар минг ўйга солар
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Яйраб-яшнаб ҳеч зерикмайсиз,
Завққа бўлиб эш, зерикмайсиз,
Кирса ҳамки кеч, зерикмайсиз
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Дўстлар! Асли бу олам гўзал,
Олам гўзал чун одам гўзал.
Швейцариядан ҳам гўзал –
“Афсоналар водийси”н кўринг.

Масжидга ўн минг одам сиғар,
Ўн минг одаммас олам сиғар,
Гўё дунё бўлса жам сиғар,
“Афсоналар водийси” кўринг.

Наманганга зеб-зийнат бўлган,
Ўр Ватанга зеб-зийнат бўлган,
Кенг жаҳонга зеб-зийнат бўлган,
“Афсоналар водийси”н кўринг!

МУНДАРИЖА

| | |
|---|----|
| АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ ДОСТОН – ФАХРИЯ ДЕБОЧА..... | 3 |
| НАМАНГАН МАДҲИ..... | 4 |
| НАМАНГАН БАДИҲАСИ..... | 8 |
| НАМАНГАН ТОНГИ..... | 10 |
| “АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ” ДЕМАК – МУЎЖИЗАЛАР | |
| МАМЛАКАТИ ҲАМ..... | 19 |
| ДУНЁ КЕЗГАН БИР САЙЁҲ ЗИКРИ..... | 22 |
| НАМАНГАН ҚАСИДАСИ..... | 25 |
| ХОТИМА..... | 29 |
| ЧОРЛОВ ҚЎШИҒИ..... | 29 |

Адабий-бадий нашр

Зиёвиддин МАНСУР

АФСОНАЛАР ВОДИЙСИ

| | |
|------------------|-------------------|
| Муҳаррир: | ДИЛОРОМ |
| Техник муҳаррир: | Иброҳим ЮСУПОВ |
| Мусахҳих: | Дилобар ТЎРАБОЕВА |

Теришга берилди 20.05.2020.

Босишга рухсат этилди 15.06.2020й.

Бичими 60x42 1/16, Ҳажми 2 босма табоқ.

Адади 3000 нусха. Баҳоси келишилган нархда.

“НАМАНГАН” НАШРИЁТИ

Наманган шаҳри, Навоий кўчаси, 36.

Нашриёт лицензия рақами АИ – 156

2009 йил 14 августда берилган

“Vodiy poligraf” МЧЖ босмахонасида чоп этилди

Манзил: Наманган шаҳри, Ғалаба кўчаси, 19- уй

Ziyoviddin MANSUR

AFSONALAR VODIYSI

Namangan – 2020 yil

UO‘K: 821.512.133-1

KBK : 84 (5O‘zb) 7

M - 28

Iste‘dodli Shoir, yetuk publitsist, faol jamoatchi Ziyoviddin Mansur o‘zining “Qalbim parchalari”, “Hayrat saltanati”, Dilrabolar diyori”, “Muhabbat bog‘i”, “Ezgulik elchisi”, “Noyob kaShfiyot”, “To‘tiyo”, “Istiqbol yo‘li”, “Shom va tong”, “O‘zbekistonning samoviy e‘tiroflari”, “Quyosh hayqiriqlari, “Ayolning qirq joni tavsifi” singari qator She‘riy kitoblari bilan o‘z muhlislariga ega ijokorlardan.

Uning qator She‘rlari taniqli hofizlar tomonidan sevib kuylanadi. Ko‘plab She‘rlari qoraqalpoq, rus, ingliz, nemis, urdu va puShtun tillariga tarjima qilingan.

O‘ylaymizki, yuksak badiiy ruh va chuqur lirizm bilan suG‘orilgan She‘rlardan saralangan uShbu kitob ham sizni befarq qoldirmaydi, aziz She‘riyat ixlosmandlari!

ISBN – 978-9943-5920-5-6

© “Namangan” naShriyoti 2020 yil

© Ziyoviddin MANSUROV 2020 yil

**AFSONALAR VODIYSI
DOSTON – FAXRIYA
DEBOCHA**

Tashvishlar yetarli,
Lekin baxayr-
Oila, farzandlar, ish,
Zarur bari.
Birodar!
Ularga deydik-da:
Xayr!
Ketdik
“Afsonalar vodiysi” sari.

Bunday joy qaerda? demay turib sen
Men davom etayin javob berishda:
Bu joy shundoqqina Toshkent tomondan
Namangan shahriga kiraverishda.

Oldindan bir gapni aytib qo‘yayin:
Afsona tuyular ushbu so‘zim ham:
Selxona bo‘lgandi ushbu joy oldin,
Desalar, ishonmam bugun o‘zim ham.

Dastlab “Afsonalar vodiysi” haqda
Yurtboshi gap ochsa:
-Nahotki!- devdik.
Bunday afsonani, rost gap, u vaqtda
Hatto tushimizda ko‘rmagan edik...

Axir,
Kim o‘ylabdi shu selxonada
Qurilar bundayin maskan – shohona?!
Xalqning yurtga mehri oshmish yanada
Haqiqat tusini olgach afsona!

Ikkimiz olguncha ozgina jilib,
Sen tutib olguncha bir qadar o'zni,
Debocha so'zimga omuxta qilib
Namangan madhidan boshlayin so'zni:

NAMANGAN MADHI

Yaratganning kuch-madoriga
Tan bermagan gumrohlari uchun,
U dunyoda jannat boriga
Ishonmagan shakkoklari uchun.

Hayrat ichra qolib hayron-lol,
Ko'zin ochsin, deb ahli gumroh,
Bo'lsin, deya jannatga timsol
Namanganni yaratmiSh Alloh.

Xizir-nazar Namangan chindan
Bu ehtimol ilohiy taqdir:
Vodiyga ham o'tilar shundan
Pop vodiyni darvozasidir.

Csustin ahli misli Mavlono
Csustiylarning qavmidan erur.
Shu boisdan har biri go'yo
Quyosh misli sochar shu'la, nur.

To'raqo'rg'on ahli to'ralar
Kabi ohanrabosi bor xalq.
Halol mehnat bilan qo'r olar
Boburdayin podShosi bor xalq.

Har go'shasi o'zga bir olam,
Ko'rsang dilda qolmaydi qayg'u,
Kosonsoyin bir ko'rgan odam,
Yaltani hech qilmaydi orzu.

Toshbuloqning asl, mazmunan
Toshdanligi nomidan ma'lum.
Chindan ahli Namangan tuman
Boshi toshdan, ongi zich ilm.

Mingbuloqning mingta bulog'in
Sanab yetgan emas hech kishi.
Ishda pishgan urug'-aymog'in
Buloqlardan tiniqdir ishi.

Norindaryo atroflarida
Asl o'zbek-sartlar yashaydi.
Yigit-qizin barchalarida
Erkakcha fe'l – mardlar yashaydi.

Mard Uchqo'rg'on ahli bo'lishni
Har qandayin odam ham suyar.
Chunki bu yerliklar har ishni
Uchqo'rg'ondan ko'rsatib qo'yar.

Uychi so'zi bilmadim, asli
Uychi emas, menimcha o'ychi.
O'y surmas bu el desa nasli
Dangal aytar:
Bu gaping qo'ychi!

Namanganda, emaski ajab,
Tog' yo'qligi biroz chatoq-da.
Bu gap uncha to'g'rimas, sabab:
To'rtta tog' bor bitta Chortoqda.

Yangiqo'rg'on-bog'lar diyori,
Betimsol bog'-rog'lar makoni.
Toza havo-sof nafas bori
Xuddi filiali Ma'voni.

Dunyo kezing takror va takror,
Bu bir shoir sharhi, yoronlar:
Olamda bitta gul shahri bor,
Bu – Namangan shahri, yoronlar!

Bunda har bir erkak misli tog‘,
Garchi mo‘min-qobildir ko‘pi,
Belida bor hamisha belbog‘,
Boshida bor hamisha do‘ppi.

Xudo bergan har kun besh mahal
Masjidlarda yangraydi azon.
Bu joy ahli azaldan azal
Ahli taqvo-ahli musulmon.

Xizirsifat mo‘ysafidlari,
Lafzi bilan ulashadi qand.
Go‘zallikda ayolin bari
Jannatdagi hurlarga monand.

Bu go‘shaning chinorlari ham
Bos‘boniga o‘xshab ketadi:
Misoli sertakalluf odam,
Quchoq ochib mehmon kutadi.

Gar olmoqchi bo‘lsangiz bilib
Afsonaning rostakamini
Taklif etay,
Ko‘ring bir kelib,
Namanganning gul bayramini.

Bunda gullar os‘zin lang ochib,
Qishin-yozin yashnab turadi.
Favvoralar mehrini sochib
Yo‘llarga suv purkab turadi.

Iqror bo‘lmas esa dildan kim
Ijodkorin yoniShlariga,
Bir daqiqa tutsin quloG‘in
Habibasin xoniShlariga.

Mevasiga kelgan har odam
Shevasiga bo‘lgay xaridor.
Beshikdagi chaqalog‘in ham
“Inga”lashi kuyvor, nazmvor.

Bunda murid, kelsa xonasi,
Pirga aql o‘rgatib qo‘yar,
“O‘rtar”lasa, Mashrab nolasi
Oshiqarni o‘rtatib qo‘yar.

Ko‘klarga uchganday sarafroz
Bo‘larmidi dildan yayramay?
Kamoliddin chalganida soz
Hatto bulbul tursa sayramay?!

Bu el piri erur san’atni,
Bunga dildan tan bergan ozmas.
Akmal Nur kashf etgan suratni
Tirik jon, deb o‘y surgan ozmas.

Boksyor Murodjonning mushtiga
Fil qulaydi, desa bor asos.
Alisherin yetti pushtiga
Puli yetar, degan gap ham rost.

Bu el hatto Marsda bo‘lmas kam,
O‘z oshini oshab ketadi.
Namanganlik Oyga chiqsa ham
Mehnat qilib yashab ketadi.

O'zni ko'proq masjid, madrasa
Tomon urar namanganliklar.
Jannatga ham, Xudo xohlasa,
Eng ko'p kirar namanganliklar!

Burungi qutlug' yil, daf'atan
Biz chun ko'p baxt ayladi in'om.
Yurtboshi ham bejiz "Namangan
Yili", deya bermadilar nom.

Etti yotlar nima desa der,
Shunday joyda yashash chin baxt-da!
Do'stim!
Tingla yana bita she'r
Aytib beray Namangan haqda:

NAMANGAN BADIHASI

Olmalari oy-oy, Oy
Namanganimning,
Holvalari bolga boy
Namanganimning.
So'zlari ham olmayu
Holvasiday bol –
Shevasi naqd asalchoy
Namanganimning.
Suvlari misli zam-zam
Bo'lgani chun ham
Nonlari gijda, shirmoy
Namanganimning.
Olam eli bilar gul
Shahri, deyilsa,
Har guli ramzi chiroy
Namanganimning.
Qizlari-Layli, vasli

Kuyida Majnun –
Tollarining qaddi yoy
Namanganimning.
Norini raqqosa-yu,
Sayhuni - mashshoq,
Hofizi – xonanda soy
Namanganimning.
“Alla”sini Habiba
Boshlasa, netong
Bulbuli solsa “dod-voy”
Namanganimning.
Asli bu joy Xizirning
BoGg‘i, shu bois
Har qarichi qadamjoy
Namanganimning..
Tarixan Axsikent ilk
Taxti, sehrli
Tilsimi bu shohsaroy
Namanganimning...
Mulla Bozoru Mashrab,
Ibratu Nodim
Boyligi – misli bug‘doy
Namanganimning.
Chustiyi Chust-bulbuli,
Habibi ham zo‘r?
SHhoiri so‘zlari moy
Namanganimning.
Har bir ulug‘i tog‘, yer
Qa’rida yotgan –
Poyida ne - ne Oloy
Namanganimning.
Sha’nini bulg‘agan yo
Burchin unutgan

Shoh esa, bo'lg'ay gadoy
Namanganimning...

Tolei kahkashonda
Yangi zamonda

Boshiga qo'ndi Humoy
Namanganimning:

Yangi shu hur zamonda
Gulladi yashnab,

Xalqi bo'lib ketdi boy
Namanganimning!

Qodir Egam! Yorlaqab,
Omadin otin

Choptir, etib uchar toy
Namanganimning!

Ishqini aylab navo,
Ayla, Ziyo, vasf,

Dovrug'in olamga yoy
Namanganimning!

Tamoyil bor aksar nazmimda
To'q qofiya tong so'ziga ong.
Bu olamda,
Mening nazdimda
Namangandan boshlanadi tong.

NAMANGAN TONGI

Borliq tun pardasin
Ko'tarmay hali,
Yuzdan oq ro'molin
Ochganday xiyol
Quchog'i to'la gul
Subh mahali
Gul shahrim

Onamday
Ko‘rsatar jamol.
Yangrar chor tarafdan
So‘filar “bong”i,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Mashhur Xalq hofizi-
Kamoliddini
“Ehehey Nargiz!” deb
Chorlaydi go‘yo.
Shundanmi,
Kelinlar quvib uyquni,
Tong otmay atrofga
Berar ko‘rk, oro.
Bu-udum
Ming-ming yil
Vaqtdan buyongi
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Hattoki xo‘rozlar
Qichqirmay turib,
To‘ylarga chorlaydi
Jarchi karnaylar.
Bir juft-
Bir juft bo‘lib
Palovni urib,
El o‘zin dala-yu
Bog‘larga shaylar.
Zavq berar nog‘ora,
Surnay “gij-bang”i
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Hayqirib oqadi
Poyida Sayxun,
Boshida ulkan tog‘-
Go‘yo toji bor.
Gullari
Sehrlab qo‘ygani uchun
Bag‘ridan to‘rt fasl
Ketolmas bahor.
Qumrilar kuy to‘qir
Yangi va yangi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Yana bir xush odat:
Har juma kuni
Bomdoddan so‘ng
Dillar
Mozorga tortar.
Duogo‘y el
Yaxshi bilarki shuni:
Arvohlar shod yurtda
Martaba ortar.
Hattoki marhumlar
Shod maskan tongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Istiqlol Quyoshi
Porlab hur o‘lka
Misli bu go‘sha ham
Nurlarga to‘ldi.
Olis uch ming yillik
Tarix bir bo‘lsa,

Yangi bu hur zamon
Davri bir bo‘ldi.
Lol o‘lmang, aylasa
Xumori, bangi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Gul bo‘yli havodan
Qonib sipqorib,
Tuyarkan ko‘katlar
Xush nafasini,
Suhbatdosh jo‘ralar
Guzarga borib,
Tarqamas
Ichmay rizq-mastavasini.
Ko‘k choydan erigay
Ko‘ngillar zangi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Unutib
Yuz yillik dardu charchog‘in,
Misoli
Jannatga tushganday bo‘lar.
Saharlab kim kezsa
Namangan bog‘in,
Engillab
Samoga uchganday bo‘lar.
Bu – Egam Arshidan
Jo‘natgan tongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

O‘y layman:
Qay go‘lni uyqu elitar
Habiba ingranib
“Alla” aytgan payt?!
Uxlasa ham
Zavqdan uyg‘onib ketar,
Zulayho
“Hay-hay”lab
Yalla aytgan payt!
Keng jahon bo‘ylab
Keng taralgan dong‘i,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Bulbullar
Qayda ko‘p jo‘shib
“Chah-chah”lar?
“Chah-chah”lar,
Qay maskan
Bo‘lsa gul,
Gulzor!
Xo‘sh,
Endi ayting,
Ey, “valax-valax”lar,
Dunyoda gul shahri
Yana qayda bor?!
Hamohang AliSher
Fayzning ohangi –
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

AliSher Usmonov
Ketmay yashardi,

Sayr etsa o‘z shahrin
To‘rt tomonini.
Yanada yashnatsa
Mulki oshardi
O‘z ota-onasin
Gul oshyonini!
Bebaho-behisob
Mulk-mahzan tongi-
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Bobur ham
Kelsa Sshod
Sayr etar edi,
Bitardi
Eng go‘zal –
Shoh g‘azalini.
Ehtimol,
Shu joyda yaratar edi
Tamoman boshqacha
“Tojmahal”ini.
Hind, rummas
O‘zbekning pok,
Teran tongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Sir emas,
Qaysidir
Mashhur kentlarda
Fahmil, deb
Tongda ham
Kam-kam icharlar.

Ichkilik tamoman
Yot bu shaharda
Ichsalar ham goh-goh
Zam-zam icharlar.
Jang bo‘lsa ham bo‘lar
Goh shaxmat jangi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Muhtaram Yurtboshim
Chog‘lab har dilni,
O‘shanda bu joydan
Beiz qaytmadi:
Muayyan kunnimas,
Butun bir yilni
Namangan yili!-deb
Bejiz aytmadi.
Emas bir joy tongi,
Yo‘q!
Vatan tongi!-
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

O‘z yuksak bahosin
Olishi tayin
Ming yillar
Mo‘ljalga olingan ishlar.
Avvali Xudo,
So‘ng Yurtboshi,
Keyin
Yosh hokim
Bosh bo‘lib
Qilingan ishlar.

Bu-ulkan dengizga
Bir o‘zan tongi
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Hamjihati bu elda
Gap bor azaldan:
Laylakning kelishmas,
Ketishiga boq.
Kelishgan Namangan
Ahlin daf’atan
Saflarda basma-bas
Ketishiga boq!
Hali bu elning ilk-
Boshlangich ongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Pokniyat qavmimning
Ramzidir azal
Oq ro‘mol,
Oq yaktak,
Oq laylak,
Qatiq.
Shundayin hislarga
Bo‘lar-da mahtal,
Hatto pandemiya
Ilashmas qattiq.
Azal oq fotiha-
Xush suxan tongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Odatiy ishga har
Qizni, o‘g‘ilni
Kuzatar
Duoga ochilgan qo‘llar.
Shundan
Xush kayfiyat
Yashnatib dilni,
Ka‘baga tutashar
Bunda bor yo‘llar.
Umruga tatir ruh
Sahar mardongi,
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Hotamtoy tirilib
Shu tomon yursa,
“Namangan siti”da
Yotib olardi.
Tongda
“Afsonalar vodiysi”n ko‘rsa,
Shu joydan bir dacha
Sotib olardi.
Do‘stlar!
Hech joyda yo‘q
Bu chaman tongi –
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Qulog‘im ostida
Shivirlar bir un:
Kelganday bo‘lar Shoh
Mashrab ovozi...
Ertangi alanga,

Bugungi uchqun –
Mehrning nozi bu,
Bu Mehrinozi!
Shunchaki tong emas,
Faxr, sha'n tongi –
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!

Ushalgay tongdagi
Har orzu-havas:
Yuksalib borarkan
Ilmu fan, hunar
Vaqt kelib,
Namangan dunyoni emas,
Dunyo
Namanganni
Kelib o'rganar!
Olamni qamrar
Shu
Fikrim jarangi:
Namangan tongi bu,
Namangan tongi!!!

**“AFSONALAR VODIYSI” DEMAK – MO‘JIZALAR
MAMLAKATI HAM**

Mavzu bo‘lib san‘at,
She‘riyat
Yuraklardan arib tashvish,
G‘am
Mana,
Etib keldik nihoyat
“Afsonalar vodiysi”ga ham.

Do‘stim!
Ko‘rib turibsan, mana,
Bizga Xudo berib qoldi-da!
Qara!
Hatto Shveysariya
Hech narsamas buning oldida!

Balandparvoz gap emas bu gap:
Yoki emas bu “ura-ura”.
Bu joy faqat Shu joyga xos
Zap-
Mutlaq yangi arxitektura.

Er yuzida qozongandi ot
Etti dovrug‘u sha‘n mo‘jiza.
Bu yerdagi o‘ttiz inshoot,
Har biri bittadan mo‘jiza!

Manov cho‘qqi qilguday havas
Ramzi Eyfel, desak yetadi!
Yo‘q!
Aksincha-
Bu Eyfelgamas,
Eyfel bunga o‘xshab ketadi!

Tepasidan, (bilmasin yog‘iy)
Boqmoq gashti-tamoman o‘zga:
Unga chiqsang, butunlay vodiy
Tashlanadi bir yo‘la ko‘zga.

To‘rt yuz o‘rin-mehmonxonada
Italiya andozasi bu!
Undagi har bitta xonada
Bordir olam-olam zar, inju!

Lofmas ziynatlar ziynati shu,
Ramzi oliylarning oliysi!
Xullas,
Nomi o‘zi bilan bu –
Asl Afsonalar vodiysi!

Bir yuz ellik villa,
Olti yuz kottej.
Shoh qasri hech erur
Ular yonida.
Yozda shabadagoh,
Qishda qaynoq pech
Muhayyo
Uning har xonadonida.

Undagi ko‘llarning
Har bittasida
Yayrasa bo‘ladi suzib olomon.
Ayting, qay vaqt bo‘lgan
Bunday nashida?
Ayting, qay vaqt bo‘lgan
Bu kabi davron?!
Baxtsizlar ham baxtli
Bo‘la oladi,

Tuzalgay
Tuzalmas dil yaralari.
Chunki har dard- g'amni
Quvib soladi
Ishlasa musiqiy favvoralari.

Muhimi,
O'n mingta
Mo'min uchun mos
Masjid bor
Dunyoning hech yerida yo'q.
Vijdon erkinligi uchun bu asos
Mo'minlar ibodat qilar ko'ngli to'q.

Go'zallik kuylanar
Takror va takror,
Garchi ko'p mo'jiza koni bu dunyo –
Dunyoda bog'lar ko'p,
Afsona bisyor,
Lekin "Afsonalar vodiysi" tanho!

Tarixan bu shahar ne-ne kattayu-
Kichikni hayratga solmagan edi?!
Xizirning bog'lari bo'lsa hamki u
Bu qadar ko'rkam tus olmagan edi!!!

DUNYO KEZGAN BIR SAYYOH ZIKRI

Kezib turli-tuman sarhadda,
Ko‘p joylarga bo‘ylagan edim.
Lekin, rost gap, biron davlatda
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Umr bo‘yi sayr etib olam,
Ko‘rmaganim qoldi juda kam.
Ko‘rdim Shveysariyasini ham,
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Joylar turfa, jihozlar har xil,
Birisidan birisi sarxil,
Bamisoli bitta ansambl
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Boqdim Eyfel minorasiga,
Chiqdim Parij kanorasiga,
Hayrat bo‘lgan qatorasiga
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Eng muhimi-tabiat mavjud,
Tabiatda jamiyat mavjud.
Beqiyos ajib san‘at mavjud,
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Oddiy soyda-chuqur ichida,
Qolmish majmua nur ichida.
Yayrar odam surur ichida,
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Jo‘shdim boqib baland osmondan,
Jo‘shdim boqib huv past tomondan,

Qarab ko‘rdim to‘rttala yondan
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Tug‘ilganday bo‘lib onadan,
Chiqqim kelmas mehmonxonadan,
O‘lsam, bu ruh chiqmas tanadan
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Masjidi ham kichik-kirimmas,
Minglab masjid bunday po‘rimmas,
Xudo uyin kim qilmas havas
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Gaplarimga qaysidir birov,
E’tiroz ham bildirar darrov,
Kim yutarga o‘ynayman garov,
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Mo‘minlari ham sara-sarvar,
Xuddi Ka’ba ahliga o‘xshar,
Alloh buyurgan yanglig‘ yashar
Bunaqasin ko‘rmagan edim.

Dilda borin etsam ifoda,
Kim tan berar, kimdir bermas tan,
Lof emaski, axir dunyoda
Bunaqasi hali bo‘lmagan!

Ey, olam ahli,
Ey,
Siz nasli bashar!
Yayrasin desangiz ruh,
Tan hamda jon,

Yo‘llanma oling-da,
Aylangiz safar,
Haqiqiy mo‘jiza – Namangan tomon.

O‘shanda taklifdan minnatdor bo‘lib,
Albatta, menga ham rahmat aytasiz.
Ishonchim komilki,
Zavq-shavqqa to‘lib,
Jannatni ko‘rganday bo‘lib qaytasiz.

Men shunda go‘yoki quchganday marra,
Zavqimni she’rlarga to‘kib solaman.
Va Sizni,
Ey, do‘stim!
Yana bir karra
Namangan shahrida kutib qolaman!

Shoirman-da,
Doim gapim o‘ng,
Gapni cho‘zsam, malol olmaysan.
Ushbu she’rni eshitgandan so‘ng
Namanganga kelmay qolmaysan:

NAMANGAN QASIDASI

Ochar Har g‘uncha yozu qish
Qabo bizning Namanganda,
Shu bois eng muattarbo‘y
Havo bizning Namanganda.

Muhabbat qo‘zg‘ab onglarda
Ajab sirli ohanglarda,
Chunon dil yayratar bodi
Sabo bizning Namanganda.

Chamanda qumri, bulbullar
Jo‘shar nag‘ma qilib, vah-vah,
Sabo birla kelar dilbar
Navo bizning Namanganda.

Boshida purviqor tog‘lar,
Poyida yashnagan bog‘lar,
Naxush dillarni ardoqlar
Safo bizning Namanganda.

G‘azal bobida Shoh Mashrab,
Habib Sa‘dullalar nasli
Abad nazmi bila bergay
Sado bizning Namanganda.

Nechun ahli ayoli hur,
Malaklardan qolishsinlar,
Etib tursa parilarni
Bino bizning Namanganda.

Go‘zal oftobjamollarga
Esa oppoq ro‘mol ziynat,
Bezakdir iffatu sharmu
Hayo bizning Namanganda.

Qiz olsangiz oling shundan
Adashmang, sovchilar, hay- hay,
Asl toza palak – ahli.
Vafo bizning Namanganda.

Hamisha qo‘llari ko‘ksin
Quchib turgay tavoze‘la,
Qari-yoshda ajab ta‘zim
Bajo bizning Namanganda.

Keling, do‘stlar, keling, do‘stlar!
Tutarmiz Sizni bosh uzra,

Aziz mehmon uchun jonlar
Fido bizning Namanganda.

Qayu kimsa kasal, kelsin
Nanay, Chortoq, Kosonsoyga,
Tuzalmas xastaliklarga
Davo bizning Namanganda.

Qarib yuz yoshda ham ahlin
Duto bo'lmas beli shundan,
Kasoddir bo'lsa bozori
Aso bizning Namanganda.

Eli toat-ibodatda
Qolishmas Ka'ba ahlidan,
Vatan, el haqqiga eng ko'p
Duo bizning Namanganda.

Minoda bitta hamyurt boy
So'zidan bir tilak uqdim:
U ming bor rozi bo'lmoqqa
Gado bizning Namanganda.

Kim u dinsiz-diyonatsiz,
Hunarsiz, ilmu odobsiz,
Aningdek kimsalar baxti
Qaro bizning Namanganda.

Go'zallik, ko'rk, nafosatga
Chunon shaydo yashar bu el,
Shu bois gul erur Yeru
Samo bizning Namanganda.

O'zin abgor etib yotmay,
Go'zallarning qo'lin o'pgay,
Chunonam baxtlidir hatto
xino bizning Namanganda

Agar baxt istasang ey, yor!
Etay baxtim ato, kelgin,
Kel, ey boshingga qo'nguvchi
Humo bizning Namanganda.

Yaratgan Tangrim oshyoni, Ziyo,
Har dilda, debdirlar,
Demak, har dilga jo bo'lgan
Xudo bizning Namanganda!

Iloji yo'q suymay bu Yerni,
Ketolmaysiz bo'lmay shaydo-rom
G'afur G'ulom boshlagan she'rni
Ixlos bilan ettirsam davom:

Bu ko'm-ko'k Ko'kda tinchlik
Kaptari bizning Namangandan,
Go'zallik ham vafoning
Daftari bizning Namangandan.
Qaerda ikki ko'klamning
Sabosi bir tomon yelsa,
Bilingkim, ul esibdir,
Bir sari bizning Namangandan!
Namanganlikka bu joymas,
Go'zaldir ikki dunyo ham,
Biling, jannatdagi aksar
Pari bizning Namangandan!
Navoiydan keyin Boburu Mashrab,
Chustilar borki,
Bu uch ko'hna aruzning
Zargari bizning Namangandan.
Bulardan-da baland mullo
Bozor Oxund, Kosoniylar
Ki aksar ma'naviyat ganj,
Zari bizning Namangandan.

Bu joyda na kumush koni,
Na tillo koni bor, ammo
Joy olgandir go‘zallik
Mehvari bizning Namangandan.
Ziyo, senday azonu, shom
Xudo, derkim eling tinmay,
Bu baxtki, har balo o‘tgay
Nari bizning Namangandan!

X O T I M A

Har qadamda mo‘jiza lak-lak,
Ko‘rgan hayron:
Bu qanday olam?
“Afsonalar vodiysi” demak –
Mo‘jizalar mamlakati ham.

Oldimizda hali ko‘p safar,
Shod yursa xalq saltanatida.
Ko‘rishguncha xayr,
Birodar!
Mo‘jizalar mamlakatida.

Yaratganga shukrona ayta,
Zavqim jo‘shib she’rga solaman.
Do‘stim!
Kelsang,
Qayta va qayta
Namanganda kutib olaman!

CHORLOV QO‘SHIG‘I

Namanganga tushsa yo‘lingiz
“Afsonalar vodiysi” n ko‘ring.
Nimadandir cho‘ksa ko‘nglingiz,
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

Dimog‘ingiz chog‘ bo‘lar shunda,
Ko‘nglingiz naq tog‘ bo‘lar shunda,
Umringiz zavq-la to‘lar shunda,
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

G‘amlar sizni tashlab ketadi,
Quvonch qo‘ldan ushlab ketadi,
Samolarga boshlab ketadi
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

To‘rt yulduzli mehmonxonalar,
Villalar, go‘zal jononalar,
Favvoralar ming o‘yga solar,
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

Yayrab-yashnab hech zerikmaysiz,
Zavqqa bo‘lib esh, zerikmaysiz,
Kirsam hamki kech, zerikmaysiz,
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

Do‘stlar! Asli bu olam go‘zal,
Olam go‘zal chun odam go‘zal.
Haddan go‘zal, chunonam go‘zal,
“Afsonalar vodiysin ko‘ring.

Masjidga o‘n ming odam sig‘ar,
O‘n ming odammas, olam sig‘ar,
Go‘yo dunyo bo‘lsa jam sig‘ar,
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring.

Namanganga zeb-ziynat bo‘lgan,
Hur Vatanga zeb-ziynat bo‘lgan,
Keng jahonga zeb-ziynat bo‘lgan
“Afsonalar vodiysi”n ko‘ring!

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| AFSONALAR VODIYSI DOSTON – FAXRIYA DEBOCHA..... | 35 |
| NAMANGAN MADHI..... | 36 |
| NAMANGAN BADIHASI..... | 40 |
| NAMANGAN TONGI..... | 42 |
| “AFSONALAR VODIYSI” DEMAK – MO‘JIZALAR | |
| MAMLAKATI HAM..... | 52 |
| DUNYO KEZGAN BIR SAYYOH ZIKRI..... | 55 |
| NAMANGAN QASIDASI..... | 57 |
| XOTIMA..... | 61 |
| CHORLOV QO‘SHIG‘I..... | 61 |

Adabiy-badiiy nashr

Ziyoviddin MANSUR

AFSONALAR VODIYSI

Muharrir:

Nosir ABBOS

Texnik muharrir:

Ibrohim YUSUPOV

Musahhah:

Dilobar TO‘RABOEVA

Terishga berildi 20.05.2020.

Bosishga ruxsat etildi 15.06.2020y.

Bichimi 60x42 1/16, Hajmi 2 bosma taboq.

Adadi 3000 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.



“NAMANGAN” NASHRIYOTI

Namangan shahri, Navoiy ko‘chasi, 36.

Nashriyot litsenziya raqami AI – 156

2009 yil 14 avgustda berilgan

“Vodiy poligraf” MCHJ bosmaxonasida chop etildi

Manzil: *Namangan shahri, G‘alaba ko‘chasi, 19- uy.*